

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil yanvar-sentabr oylari uchun Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YaHM) hajmi joriy narxlarda 46 432,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 4,0 %ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 109,7 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,2 %ga yetdi


### Yalpi hududiy mahsulot (2023- yil yanvar-sentabr holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko'rsatkichlar	mlrd.so'm		2022- yil nisbatan, % hisobida
	2022-yil	2023-yil	
<b>Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>40 698,2</b>	<b>46 432,5</b>	<b>104,0</b>
shu jumladan:			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	39 445,4	45 222,1	103,9
 Mahsulotlarga sof soliqlar	1 252,8	1 210,4	106,9
<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>39 445,4</b>	<b>45 222,1</b>	<b>103,9</b>
 <b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>13 769,1</b>	<b>15 600,4</b>	<b>103,2</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>10 335,8</b>	<b>11 510,0</b>	<b>105,9</b>
 sanoat	7 745,9	8 426,5	103,6
 qurilish	2 589,9	3 083,5	112,7
 <b>Xizmatlar</b>	<b>15 340,5</b>	<b>18 111,7</b>	<b>103,2</b>
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 007,1	3 575,9	106,8
 tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	2 328,7	2 746,0	106,0
 boshqa xizmatlari	10 004,7	11 789,8	101,5

**Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘shish sur‘atlari YaHM o‘shishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining o‘shish sur‘ati- 103,2%, (YaHM tarkibidagi ulushi- 34,5%), sanoat- 103,6% (18,6%), qurilish 112,7% (6,8%), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar- 106,8% (7,9%), tashish va saqlash, axborot va aloqa- 106,0% (6,1%) va xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar- 101,5% (26,1%)ni tashkil etdi.

### 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘shish sur‘atlari



#### *iqtisodiy faoliyat turlari*


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,4% ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,6% ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 34,5 %ni, sanoat tarmogʻi 18,6 %ni, qurilish 6,8 %ni va xizmatlar sohasi 40,1 %ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 40,1 %ni tashkil etdi va 2022- yil (38,9 %) bilan taqqoslanganda 1,2% punktga koʻpaydi.

### Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi


(yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan foizda)



Savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,9 %ni (2022-yil- 7,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,1 %ni (5,9 %), xizmat koʻrsatuvchi boshqa tarmoqlar – 26,1 %ni (25,4 %) tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi


(yanvar-sentabr, jamiga nisbatan, foizda)



Joriy yilning yanvar-sentabr oylari davomida dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 11 583,8 ming so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning (10 368,2 ming so‘m) mos davriga nisbatan 1,9 %ga o‘tdi.

## Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi yanvar-sentabr holatiga, %


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 69,6 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 69,0 %)ni tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMni shakllantirishda Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,2 %ni tashkil etdi.

### YaIM da Farg‘ona viloyatining ulushi, foizda



### Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–sentabr holatiga

Hududlar	YaHM mlrd. so‘m			Aholi jon boshiga, ming so‘m		
	2022- yil	2023 - yil	%	2022- yil	2023- yil	%
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>638 338,5</b>	<b>750 925,7</b>	<b>105,8</b>	<b>17 958,0</b>	<b>20 679,6</b>	<b>103,6</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	21 015,2	22 128,9	103,1	10 724,2	11 146,4	101,7
Andijon	36 822,3	44 718,9	104,5	11 230,1	13 351,3	102,3
Buxoro	32 152,0	37 088,7	104,3	16 169,0	18 339,9	102,6
Jizzax	18 978,5	23 145,3	104,7	13 043,6	15 557,8	102,4
Qashqadaryo	35 054,3	41 646,0	104,5	10 205,3	11 861,6	102,2
Navoiy	49 148,5	57 274,8	105,2	47 167,5	53 880,4	103,1
Namangan	28 910,1	33 664,6	105,3	9 782,8	11 135,1	103,0
Samarqand	44 111,6	52 438,5	104,8	10 857,2	12 629,4	102,6
Surxondaryo	24 648,5	29 436,5	105,2	8 910,3	10 392,1	102,7
Sirdaryo	12 634,7	15 136,3	105,4	14 271,6	16 760,4	103,3
Toshkent v.	67 544,3	76 383,9	103,6	22 831,4	25 335,5	101,7
<b>Farg‘ona</b>	<b>40 698,2</b>	<b>46 432,5</b>	<b>104,0</b>	<b>10 368,2</b>	<b>11 583,8</b>	<b>101,9</b>
Xorazm	22 344,8	26 092,0	105,0	11 544,1	13 238,6	103,1
Toshkent sh.	109 111,5	130 035,3	108,6	37 646,7	43 513,4	105,3